



Xalq so'zi

O'zbekiston
kelajagi
buguk
davlat

2026-YIL – MAHALLANI RIVOJLANTIRISH VA JAMIYATNI YUKSALTIRISH YILI

WWW.XS.UZ E-mail: info@xs.uz

2026-yil 3-fevral, № 22 (9193)

Seshanba

Saytimizga o'tish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



FUQARO AVIATSIYASI JAHON ANDOZALARIGA MOS TARZDA RIVOJLANTIRILADI

Prezident Shavkat Mirziyoyev Navoiy xalqaro aeroporti faoliyati samaradorligini oshirish hamda aviatsiya korxonalarini transformatsiya qilish yuzasidan taqdimot bilan tanishdi.

Navoiy xalqaro aeroportining asosiy ko'rsatkichlari 2025-yilda 2024-yildagiga nisbatan o'sganiga qaramasdan havo kemalariga xizmat ko'rsatish, yo'lovchi va yuk tashish bo'yicha maksimal quvvatlaridan to'liq foydalanilmayapti.

Shuningdek, aeroport infratuzilmasi, texnika parki, yuk va yo'lovchi terminalarini modernizatsiya qilish, faoliyat jarayonlarini raqamlashtirish zarur.

Taqdimotda Navoiy xalqaro aeroportini loyihaviy boshqaruv tamoyillari asosida rivojlantirish taklif etildi.

Aeroporti "Uzbekistan Airports" AJning markazlashgan operativ boshqaruv tizimidan ajratgan holda unga mahalliy va xorijiy aviakompaniyalar bilan yo'lovchi va yuk tashish, tranzit hamda texnik qo'nishlar bo'yicha mustaqil muzokaralar olib borish hamda shartnomalar tuzish huquqi beriladi.

Aeroport daromadlarini uning infratuzilmasini modernizatsiya qilish, yoqilg'i rezervuarlarini kengaytirish, havo kemalarini ta'mirlash va bo'yash xizmatlarini joriy etishga yo'naltirish orqali aviatsiya xizmatlari eksportini oshirish vazifalari belgilandi.

Navoiy xalqaro aeroportini rivojlantirish bo'yicha ishlab chiqilgan biznes reja to'g'risida axborot berildi. Unga ko'ra, tijorat va noaviatsion faoliyat ko'rsatkichlari 50 foizga oshiriladi, 25 tadan ortiq aviakompaniyalarning doimiy parovzlari yo'lga qo'yilib, qayta ishlanadigan yuk hajmi 20 ming tonnadan oshiriladi.

Aeroport hududida havo kemalariga texnik va tijorat xizmatlari ko'rsatishga ixtisoslashtirilgan "porto-franko" erkin bojxona zonasini tashkil etish taklif qilindi.

2029-yil 1-yanvargacha qadar havo kemalariga xizmat ko'rsatish uchun olib kiriladigan maxsus texnika va ehtiyoj qismlar bojxona to'lovlaridan ozod qilinadi. Shuningdek, hududdagi mehmonxona aeroport tasarrufiga o'tkazilishi belgilandi.

Taqdimotda fuqaro aviatsiyasi korxonalarini transformatsiya qilish masalalariga alohida e'tibor qaratildi.

Korxonalar faoliyati samaradorligini oshirish va moliyaviy barqarorlikni ta'minlash maqsadida xarajatlarni qisqartirish,

resurslardan oqilona foydalanish hamda asosiy faoliyat turiga xos bo'lmagan xizmatlarni outsorsingga o'tkazish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar haqida axborot berildi.

Energiya tejovchi texnologiyalarni joriy etish, elektr energiyasida harakatlanuvchi maxsus transport vositalaridan foydalanish orqali ekspluatatsion xarajatlarni kamaytirish zarurligi qayd etildi.

2026-yildan boshlab "Uzbekistan Airways" va "Uzbekistan Airports" aksiyadorlik jamiyatlari tomonidan nosohaviy faoliyatni moliyalashtirish to'xtatilishi belgilandi. "Uzbekistan Airports" faoliyati 18 ta, "Uzbekistan Airways" faoliyati esa 16 ta ustuvor vazifa asosida amalga oshiriladi.

Jumladan, korxonalarda xizmatlar sifatini oshirish orqali raqobatbardoshlikni mustahkamlash, xizmat va mahsulot tannarxini hisoblashda maqbul metodologiyalarni joriy etish, ishlab chiqarish jarayonlarining barcha bosqichlarini raqamlashtirish, kadrlar tayyorlash va ularning malakasini oshirish ustuvor vazifalar sifatida belgilandi.

Transformatsiya doirasida tashkiliy tuzilmalarni qayta ko'rib chiqish, shtat birliklarini maqbullashtirish, xalqaro kredit reytinglarini oshirish, IPOga chiqish hamda korporativ xalqaro obligatsiyalarni joylashtirish bo'yicha chora-tadbirlar amalga oshiriladi.

Yig'ilishda aviatsiya sohasida kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish masalalari, jumladan, Fuqaro aviatsiyasi universiteti va uning qoshida aviatsiya texnikumini tashkil etish ishlarining borishi ko'rib chiqildi.

Ta'lim muassasalari AQShning "Embry-Riddle", Fransiyaning "ENAC" kabi yetakchi xalqaro aviatsiya ta'lim markazlari bilan hamkorlikda tashkil etiladi. Universitetda bort kuzatuvchi, aviatsiya texnikasi bo'yicha mutaxassislar va mexaniklar kabi amaliy kasblar bilan birgalikda uchuvchilik, muhandislik, havo harakati dispetcherligi, boshqaruv bo'yicha ham kadrlar tayyorlash va ilmiy dasturlar yo'lga qo'yiladi.

Prezidentimiz takliflarni ma'qullab, mutasaddilarga tegishli topshiriqlar berdi.

BARQAROR QUVVAT TA'MINOTI

Mamlakatimizda elektr energiyasi ishlab chiqarish hajmi 85 MLRD. KILOVATT-SOAT ga yetkazildi



Islohotlar samarasi

Aholi turmush sharoiti yaxshilanib, nufusining ortib borishi yoqilg'i-energiya resurslari, xususan, elektr energiyasiga bo'lgan talabni ham oshiradi. Ayniqsa, aholisi yiliga 2 foizga ko'payib, iqtisodiyoti barqaror rivojlanayotgan O'zbekistonda mazkur resursga ehtiyoj muttasil o'smoqda. Tahlillarning ko'rsatishicha, mamlakatimizda elektr energiyasiga talab yiliga o'rtacha 5-6 foiz ortyapti. Shu bois keyingi yillarda ushbu sohani rivojlantirish iqtisodiy islohotlarning eng muhim yo'nalishiga aylandi. Davlat rahbarining ta'biri bilan aytganda, energetika sohasida tub burilish yasalishi hisobiga elektr ishlab chiqarish hajmi 85 mlrd. kilovatt-soatga yetkazildi.

Bu raqam mohiyatini anglash uchun Prezidentimizning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga yo'llagan Murojaatnomasida aytilgan quyidagi gapni eslash kifoya: *"Tasavvur qiling, 2017-yildagi 60 milliard kilovatt-soat generatsiya darajasida qolib ketganimizda, hozir iqtisodiyotimiz hajmini 2 karra oshir a olarmidik? Ishlab chiqarishning o'sib borayotgan talabini, 38 million aholi ehtiyojini qoplab bo'larmidi?"* Albatta, yo'q.

Ekspert fikri

YANGI O'ZBEKISTON VA TINCHLIK DIPLOMATIYASI

O'zbekistonning xalqaro munosabatlardagi faol pozitsiyasi, Yevropa Ittifoqi bilan tobora mustahkamlanib borayotgan ko'p qirrali hamkorligi istiqbollari xorijiy ekspertlar tomonidan yuqori baholanmoqda. Bu bejiz emas, albatta. Mamlakat bugun chin ma'noda tinchlikparvar tashqi siyosati, dunyoga ochiqqligi, pragmatik diplomatiyasi tufayli global maydonda butunlay yangi qiyofada namoyon bo'lmoqda.

2022-yil bahoridan 2025-yil kuziga qadar O'zbekistondagi diplomatik faoliyatim davomida Finlyandiyaning Markaziy Osiyo bilan ikki tomonlama aloqalari Yevropa Ittifoqi siyosatiga uyg'un holda mintaqaning barqarorligi va farovonligini mustahkamlash, samarali boshqaruv va qonun ustuvorligini targ'ib etish, shuningdek, strategik hamkorlikni chuqurlashtirishga qaratildi.

Ushbu maqsadlarni ilgari surishdagi muhim vositalardan biri sifatida Yevropa Ittifoqi va O'zbekiston o'rtasidagi yangi Kengaytirilgan sheriklik va hamkorlik to'g'risidagi bitim maydonga chiqmoqda. Ushbu

bitim to'liq kuchga kirmasdan, iqtisodiy hamkorlikni kengaytirish va sohaviy islohotlarni amalga oshirish uchun tizimli asos vujudga keladi.

Mazkur bitimni muvaffaqiyatli amalga oshirish 2026-yil va undan keyingi davr uchun aniq va shaffof maqsadlarni belgilashni talab etadi. Bular qatoriga iqtisodiy diversifikatsiya, global bozorlar va mintaqaviy qo'shnichilik munosabatlariga bog'liqlikni kuchaytirish, barqaror rivojlanish, "yashil" iqtisodiyotga o'tish jarayoni, raqamlashtirish, shuningdek, kiberxavflar, terrorizm va giyohvand moddalar savdosi kabi xavfsizlik

tahdidlariga qarshi hamkorlik kiradi.

Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti (YEXHT) mintaqaviy va mahalliy darajalarda ushbu ustuvor yo'nalishlarning ko'plab jihatlarini hal etishda muhim rol o'ynamoqda. Finlyandiyaning YEXHTga raisligi 2025-yil oxirida yakunlandi va bu sana Xelsinki yakuniy akti qabul qilinganining 50 yilligiga to'g'ri keldi. Ushbu hujjatning asosiy tamoyillari: erkinlik, hamkorlik va inson qadr-qimmatiga hurmat bugungi xalqaro muhitda ham o'z dolzarbligini saqlab qolmoqda.



Aks sado

XAVFSIZ MUHIT – OSOYISHTALIK POYDEVORI

Bugun xavfsiz muhit masalasi nafaqat huquq-tartibot organlari, balki butun jamiyatning barqaror rivoji, fuqarolar farovonligi bilan uzviy bog'liq strategik vazifaga aylandi. Tez o'zgarayotgan global sharoit, axborot maydonidagi ochiqlik, raqamli texnologiyalar orqali sodir qilinayotgan yangi turdagi tahdidlar jamoat xavfsizligiga bo'lgan yondashuvni tubdan qayta ko'rib chiqishni taqozo etmoqda. Shu nuqtayi nazardan xavfsiz muhitni shakllantirishga qaratilgan har bir tashabbus, har bir amaliy qadam davlat barqarorligi va xalq ishonchi uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lmoqda.

Shunday murakkab hamda mas'uliyatli sharoitda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev raisligida Toshkent shahrida xavfsiz muhitni shakllantirish hamda jamoat xavfsizligini samarali ta'minlash bo'yicha namunaviy amaliyotni yaratish chora-tadbirlari yuzasidan o'tkazilgan videoselektor yig'ilishi poytaxtimizda osoyishtalikni ta'minlash borasida yangi, xalqqa yaqin va amaliy yondashuvlarni belgilab berdi. Yig'ilishda jinoyatchilikka qarshi kurashish, kiberxavfsizlikni kuchaytirish, mahalladan boshlanadigan profilaktika ishlarini tizimli yo'lga qo'yish masalalari davlat siyosati darajasida chuqur tahlil qilindi. Bu esa xavfsiz muhitni yaratish faqat chora-tadbirlar majmuigina bo'lib qolmay, davlat, jamiyat va fuqaroning o'zaro ishonchiga tayanadigan yaxlit tizim ekanini yana bir bor tasdiqladi.



KO'MIR VA URAN QAZIB OLISH HAJMI OSHIRILADI

Prezident Shavkat Mirziyoyev ko'mir va uran sanoatida amalga oshirilayotgan ishlar hamda yaqin istiqbolga mo'ljallangan rejalar yuzasidan taqdimot bilan tanishdi.

Ko'mir ishlab chiqarish hajmlarini oshirish, sohada raqobat muhitini kuchaytirish va mavjud zaxiralardan samarali foydalanish masalalari muhokama qilindi.

Qayd etilganidek, 2025-2026-yillar kuz-qish mavsumida 10 million tonna ko'mir qazib olish rejalashtirilgan bo'lib, bu o'tgan mavsumdagiga nisbatan 1,3 million tonnaga ko'pdir. Hozirgacha 9 million tonna ko'mir qazib olindi, o'sish 590 ming tonnani tashkil etdi. Keyingi mavsumda ishlab chiqarish hajmini 11 million tonnaga yetkazish zarurligi qayd etildi.

Buning uchun Toshkent va janubiy hududlarda joylashgan konlarni o'zlashtirishni jadallashtirish, selektiv qazib olishni kengaytirish, outsorsing asosida qo'shimcha ekskavator va texnikalar jalb qilish muhim ekani ta'kidlandi. Xususiy tadbirkorlar ishtirokini kengaytirish orqali 2026-yilda qo'shimcha 2,5 million tonna ko'mir qazib chiqarish rejalashtirilgan.

Angrendagi Nishbosh ko'mir konini o'zlashtirish loyihasiga alohida e'tibor qaratildi. Zaxiralarning hajmi 233 million tonna va qiymati qariyb 500 million dollarga baholanayotgan ushbu investitsiya loyihasi doirasida 2026-yilda qazib olish ishlarini boshlash hamda 1 million tonna ko'mir qazib chiqarish, kelgusida yillik quvvatni 10 million tonnaga yetkazish ko'zda tutilgan. Loyiha doirasida 880 ta doimiy ish o'рни yaratiladi.

Taqdimotda ko'mirni chuqur qayta ishlash asosida yangi turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarishga qaratilgan loyiha ham ko'rib chiqildi. "O'zkimyosanoat" aksiyadorlik jamiyati tashabbusi bilan ko'mirni kimyoviy qayta ishlash orqali polimer mahsulotlari olishni tashkil etish rejalashtirilgan. Loyiha qiymati 5 milliard dollar bo'lib, uning natijasida yiliga 8-9 million tonna ko'mirni qayta ishlash va 1,18 million tonna polimer mahsulotlari ishlab chiqarish quvvatlari barpo etiladi.

O'tgan yili mamlakatimizda 7 ming tonna uran ishlab chiqarilib, aniqlangan zaxiralar esa 139 ming tonnaga yetdi.

Joriy yilda Arnasoy, G'arbiy Qizilqoq, Janubiy Jongeldi, Sharqiy Ag'ron konlarini o'zlashtirishni boshlash rejalashtirilgan.

Xomashyo qazib olish hajmining ko'payishi munosabati bilan uni qayta ishlash quvvatlarini ham oshirish zarurligi qayd etildi. Uranni qayta ishlash quvvatlarini sulfat kislotasi hamda uni ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan texnik oltingugurt bilan barqaror ta'minlash chora-tadbirlari belgilab olindi.

Prezidentimiz ko'mir va uran sanoatida rejalashtirilgan loyihalarni o'z vaqtida va sifatli bajarish, ishlab chiqarish hajmlarini oshirish, iqtisodiy samaradorlikni kuchaytirish yuzasidan mutasaddilarga tegishli topshiriqlar berdi.

O'ZA.

2026-yil

1-maydan

1-oktabrdan

"Stent for Life" va "Action Plan for Stroke" xalqaro dasturlari asosida ishlab chiqilgan "Infarkt va insultga qarshi kurashish" milliy dasturi Samarqand viloyati va Toshkent shahrida,

Andijon, Namangan va Farg'ona viloyatlarida,

2027-gildan

esa boshqa hududlarda amaliyotga joriy etiladi.

Milliy dastur doirasida:

30 yoshdan oshgan aholi o'rtasida so'rovnomaga olib borish, uning natijasiga ko'ra aniqlangan xavf guruhiga mansub fuqarolarni maqsadli tibbiy tekshiruvlardan o'tkazish hamda bemorlarga shoshilinch tibbiy xizmat ko'rsatish algoritmlari va klinik marshrutlarini amaliyotga joriy etish nazarda tutilgan.

Shuningdek, mazkur kasalliklar bo'yicha shoshilinch tibbiy yordam ko'rsatishda xalqaro standartlarga muvofiq "oltin soat" tamoyilining vaqt me'yorlari joriy etiladi.

Sog'liqni saqlash tizimini takomillashtirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar taqdimotidagi.

Munosabat

O'ZARO ISHONCH VA STRATEGIK
SHERIKLIKNING MUHIM BOSQICHI

O'zbekiston va Turkiya o'xshash qadriyatlar, umumiy tarix hamda bir ildzidan oziqlanuvchi madaniy merosga ega. Har ikki mamlakat yetakchilarining o'zaro iliq munosabatlari, mintaqadagi barcha turkiy davlatlar bilan aloqalarni yaxshilashga intilishlari hamkorlikni kuchaytirishda muhim ahamiyat kasb etyapti. Buning natijasi o'laroq mamlakatlarning o'rtasidagi munosabatlarni strategik sheriklik darajasiga ko'tarildi.



Xususan, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning Turkiya Respublikasiga amalg oshirgan rasmiy tashrifi va Anqara shahrida bo'lib o'tgan oliy darajadagi Strategik hamkorlik kengashining to'rtinchi yig'ilishi ikki qardosh xalq o'rtasidagi do'stlik, o'zaro ishonch va strategik sheriklikni yangi, yanada mustahkam bosqichga olib chiqdi.

Muzokaralar davomida iqtisodiyot, savdo, investitsiya, sog'liqni saqlash, ta'lim hamda madaniy-gumanitar sohalarida hamkorlikni kengaytirishga qaratilgan muhim kelishuvlarga erishildi. Undan ko'zlangan maqsad esa savdo hajmini kengaytirish, qo'shma loyihalarini amalga oshirish, ish o'rinlari yaratish va eng muhimi, xalqlarimiz turmush farovonligini yuksaltirishdir.

O'zbekiston va Turkiya tashqi

siyosatdagi ko'plab masalalarda yakdil qarashlarga ega. Xususan, Birlashgan Millatlar Tashkiloti va Islom hamkorlik tashkiloti kabi xalqaro muloqot platformalarida bir-birini hamisha qo'llab-quvvatlab keladi, dunyoda tinchlik, hamkorlik va rivojlanish tarafdori bo'lish borasida doim hamfikr.

Shu paytgacha qadar ikki davlat rahbarlari barcha uchrashuvlarining zamirida iqtisodiy sohadagi aloqalarni rivojlantirish masalasi asosiy o'rinni egallagan bo'lsa, yaqindan boshlab bular qatoriga harbiy va xavfsizlik borasidagi hamkorlik ham qo'shildi. Shu yil 20-yanvar kuni Anqarada bo'lib o'tgan Turkiya – O'zbekiston qo'shma strategik rejalashtirish guruhining to'rtinchi yig'ilishi va "4+4" mexanizmi doirasidagi uchrashuvlarda bu intilish o'zining amaliy ifodasini topdi.

Prezidentimizning bu galgi tashrifi doirasida Turkiyaning Hatay viloyatida mamlakatimiz tomonidan barpo etilgan "O'zbekiston" turarjoy majmuasining ochilish marosimi o'tkazilishi alohida

ahamiyat kasb etadi. Gap shundaki, O'zbekiston uch yil oldin sodir bo'lgan vayronkor zilzilaning dastlabki kunlardayoq qardosh xalqqa har tomonlama yordam ko'rsatdi. Qisqa fursatda yurtimizdan qutqaruvchilar va tibbiyot xodimlari falokat hududiga yetib borib, yuzlab insonlarni qutqarish va minglab fuqarolarga tibbiy yordam ko'rsatishga hissa qo'shdi.

Turkiyada barpo etilgan "O'zbekiston" turarjoy majmuasi va Istanbulda qurilayotgan o'zbek maktabi ikki xalq o'rtasidagi do'stlik va birodarlik munosabatlaring amaliy ifodasi sifatida yuksak ahamiyatga ega. Bu tashabbuslar nafaqat jabrlangan oilalar uchun munosib yashash sharoiti va ta'lim imkoniyatlarini yaratadi, balki qardosh xalqlarimiz o'rtasidagi aloqalarni yanada mustahkamlaydi.

Malika QODIRXONOVA,
Oliy Majlis Senatining
Yoshlar, xotin-qizlar, madaniyat va sport masalalari qo'mitasi a'zosi.

ABADIY DO'STLIGIMIZ IFODASI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev hamda Turkiya Respublikasi Prezidenti Rejep Tayyip Erdog'an ishtirokida Anqara shahrida oliy darajadagi Strategik hamkorlik kengashining to'rtinchi yig'ilishi bo'lib o'tgani ikki qardosh davlat o'rtasidagi do'stlik va strategik sheriklik munosabatlaring mustahkam rivojlanib borayotganini yaqqol ko'rsatdi.



Muzokaralar yakunida imzolangan qo'shma bayonot hamda turli sohalaridagi ikki tomonlama kelishuvlar siyosiy muloqotni chuqurlashtirish, savdo-iqtisodiy hamkorlikni kengaytirish, xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlashda aniq mexanizmlarni belgilab berdi.

Ayniqsa, sanoat, qishloq xo'jaligi, transport, ta'lim, sog'liqni saqlash va madaniy-gumanitar sohalarida

sheriklikni rivojlantirish masalalari keng muhokama qilindi.

Shuningdek, ikki mamlakat yetakchilari Hatay viloyatida barpo etilgan "O'zbekiston" turarjoy majmuasining ochilish marosimida qatnashdi. Mazkur majmua bu yerda yashovchi oilalar uchun o'zbek va turk xalqlari o'rtasidagi abadiy do'stlik ramzi sifatida xizmat qilishga ishonamiz. Bu yerda qisqa fursatda 300 dan

ortiq zamonaviy xonadon va barcha zarur infratuzilmalar barpo etilgani ham ana shundan dalolat beradi. Shu bilan birga, Istanbulning Bekirkoy tumanida qurilayotgan o'zbek maktabi ham ahamiyatli tashabbus hisoblanadi. O'quv dargohi Turkiyada yashovchi o'zbek bolalariga ona tilida ta'lim olish imkonini beradi hamda milliy qadriyatlar,

madaniyat va urf-odatlarini saqlab qolishga xizmat qiladi. Mazkur muassasa ikki qardosh xalq o'rtasidagi do'stlik, kelajak avlod uchun esa muhim ta'lim va tarbiya markazi bo'ladi.

Ushbu kelishuv hamda loyihalarining o'z vaqtida, to'liq hamda samarali amalga oshirilishi xalqlarimiz farovonligi va mintaqaviy barqarorlikka xizmat qiladi. Shu bilan birga, ikki qardosh davlat o'rtasidagi strategik sheriklik aloqalarining rivojlanib, har tomonlama samara keltirayotganining amaliy ifodasiga aylanadi.

Dilbar NORMURODOVA,
xalq deputatlari Termiz
shahar Kengashi raisi.

Senator va hayot

NOQONUNIY QURILISH
HOLATI O'RGANILDI

Oliy Majlis Senati a'zolari fuqarolar murojaatlarini o'rganish, mahalliy darajada mavjud muammolarga yechim topish maqsadida bevosita hududlarga borib ishlash amaliyotini izchil davom ettirmoqda. Bu jarayonda mahalliy Kengashlar deputatlari, "mahalla yettilligi", jamoatchilik vakillari hamda aholi bilan bevosita muloqotlar uyushtirilmoqda.

Kelib tushayotgan murojaatlarning aksariyati joyida hal qilinayotgan bo'lsa, murakkab va qo'shimcha o'rganish talab etuvchi masalalar Senat nazoratiga olinib, ularni ko'rib chiqishga tegishli davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari jalb qilinayapti.

Oliy Majlis Senatining Yoshlar, xotin-qizlar, madaniyat va sport masalalari qo'mitasi a'zosi Malika Qodirxonova hamda Senatning Yoshlar parlamenti raisi Laylo Aslonova Toshkent shahrining Yakkasaryo tumanida joylashgan Yunus Rajabiy nomidagi mahallaga tashrif buyurib, aholi tomonidan bildirilgan murojaat asosida noqonuniy qurilish holatini o'rgandi.

Fuqarolar tomonidan bildirilgan murojaatda mahalla hududida olib borilayotgan qurilish ishlari shaharsozlik talablariga zid ekani, shuningdek, madaniy meros obyektlari ro'yxatiga kiritilgan Amaliy san'at muzeyiga zarar yetkazishi mumkinligi ta'kidlangan.

O'rganish jarayonida mas'ul tashkilotlar va mahalliy organlar vakillari ishtirokida qurilish ishlarining huquqiy asoslari, belgilangan normalarga muvofiqligi hamda madaniy meros obyektlarini muhofaza etish talablariga amal qilinishi yuzasidan kompleks tahlil o'tkazildi.

O'rganish yakunlariga ko'ra, aniqlangan holatlar bo'yicha tegishli davlat organlariga huquqiy choralar ko'rish, qurilish faoliyatini qonunchilikka muvofiqlashtirish hamda madaniy meros obyektlarini asrashni ta'minlashga qaratilgan taklif va taqdimnomalar kiritilishi belgilandi.

"Xalq so'zi".

Yoshlar maslahat guruhlarini
faoliyati – e'tiborda

Termiz shahrida BMTning "O'zbekistonda yoshlar va bolalar uchun qulay mahalliy boshqaruvi inkiyuziv tarzda rivojlantirish" loyihasi doirasida o'quv seminarlari tashkil qilindi.

Seminar



Ularda xalq deputatlari Kengashi huzuridagi ijtimoiy soha, yoshlar siyosati, madaniyat va sport masalalari bo'yicha doimiy komissiya a'zolari hamda yoshlar maslahat guruhlarini ishtirok etmoqda.

Treninglarda Kengash huzuridagi Yoshlar maslahat guruhi milliy modeli, uning maqsad va vazifalari haqida batafsil ma'lumot berildi. Shuningdek, yoshlar maslahat guruhlarining vakolatlari, huquq va majburiyatlari, ish faoliyatini tashkil qilish masalalari yuzasidan tajriba almashildi.

O'quv seminarlari davomida ishtirokchilar boshqaruv jarayonlarida yoshlar va bolalar

ishtirokini oshirish bo'yicha xalqaro va milliy tajriba bilan tanishdi. Mahalliy boshqaruvdagi yoshlar maslahat tuzilmalari, ularning vakolat va funksiyalarini chuqurroq o'rganish imkoniyatiga ega bo'ldi.

Bundan tashqari, byudjet jarayonida yoshlar ustuvorliklarini inobatga olish, tashabbusli byudjetlashtirish hamda davlat moliyasini va mahalliy moliyani boshqarish bo'yicha amaliy ko'nikmalarni mustahkamladi.

Treninglar yakunida ishtirokchilar guruhlarda ishlagan holda kelgusi 6 oyga mo'ljallangan harakatlar rejasini ishlab chiqdi va uni taqdim etdi.

"Xalq so'zi".

Siyosiy partiyalar fraksiyalarida

IJTIMOIY-IQTISODIY MASALALARNING
HUQUQIY ASOSI

Siyosiy partiyalarning Oliy Majlis Qonunchilik palatasidagi fraksiyalarining kecha bo'lib o'tgan yig'ilishlarida quyi palataning navbatdagi majlisi kun tartibiga kiritilishi rejalashtirilayotgan masalalar ko'rib chiqildi. Deputatlar

muhokamarar chog'ida qonun loyihalarining ahamiyati, dolzarbligi, zaruratiga e'tibor qaratib, ularni bugungi kun talablaridan kelib chiqqan holda yanada takomillashtirishga oid muhim takliflarini bildirdi.

Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati – O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasi fraksiyasi yig'ilishida davlatimiz rahbarining Turkiya Respublikasi Prezidentining taklifiga binoan joriy yil 29-yanvar kuni ushbu mamlakatga rasmiy tashrifining yakunlari haqida so'z yuritildi.

Fraksiya a'zolari mazkur tashrif ikki davlat o'rtasidagi hamkorlikni yangi darajaga olib chiqishda muhim bosqich bo'lish bilan birga, barcha sohada hamkorlikni yanada chuqurlashtirishga xizmat qilishini ta'kidladi.

Ayniqsa, oliy darajadagi Strategik hamkorlik kengashining to'rtinchi yig'ilishi ikki tomonlama munosabatlarni yanada chuqurlashtirishga qaratilgan muhim diplomatik tadbir bo'lgani alohida qayd etildi.

Shundan so'ng bir guruh deputatlar tomonidan qonunchilik tashabbusi huquqi asosida kiritilgan "O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga qo'shimchalar va o'zgartirish kiritish haqida"gi qonun loyihasi ko'rib chiqildi.

Ushbu qonun loyihasi bilan garovga qo'yilgan mulkni ishonib topshirilgan shaxs tomonidan qonunga xilof ravishda tasarruf qilish oz yoki ko'p bo'lmagan miqdorda sodir etilgan taqdirda ma'muriy javobgarlik belgilanmoqda. Bu orqali mazkur turdagi huquqbuzarliklar uchun javobgarlikdagi mavjud bo'shliq bartaraf qilinmoqda.

Muhokama davomida **fraksiya a'zosi Barno Berdiyeva** qonun loyihasining mazmun-mohiyatiga alohida to'xtalib, undagi ayrim normalar yuzasidan o'z fikr-mulohazalari, taklif va tavsiyalarini bildirib o'tdi.

– Loyihada nazarda tutilayotgan normalar jamiyatda xavfsiz muhitni mustahkamlash, yangi turdagi huquqbuzarliklar paydo bo'lishining oldini olish, aholi, ayniqsa, yoshlarga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan holatlarni bartaraf etishga xizmat qiladi, – dedi deputat.



Fikr-mulohazalardan so'ng qonun loyihasi qo'llab-quvvatlandi.

"Milliy tiklanish" demokratik partiyasi fraksiyasi yig'ilishida Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksga qo'shimchalar va o'zgartirish kiritishni nazarda tutuvchi qonun loyihasi muhokama qilindi.

Ta'kidlanganidek, so'nggi yillarda mamlakatimizda jamoat tartibi va xavfsizligini ta'minlash, jinoyatchilikning oldini olishga qaratilgan tizimli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Shu bilan birga, joylarda huquqbuzarliklarga sabab bo'lgan omillar saqlanib qolyapti. Bu borada Qonunchilik palatasi deputatlari joylarga chiqib, jinoyatchilik holatini o'rganish, fuqarolar bilan bevosita muloqot qilish va mavjud muammolarni tahlil etishi natijasida qator tashabbuslarni ishlab chiqdi.

Mazkur qonun loyihasi bilan ayrim turdagi huquqbuzarliklar uchun javobgarlik nazarda tutilmoqda. Jumladan, telekommunikatsiya hamda Internet-jahon axborot tarmoqlarida uyatli so'zlar bilan so'kinish, haqoratomuz shilqimlik qilish va jamoat tartibini buzuvchi boshqa shu kabi harakatlar uchun ma'muriy javobgarlik joriy etilmoqda.

Yig'ilishda qonun loyihasi yuzasidan qator savollar ko'tarildi. Unda ko'zda tutilayotgan normalarning ahamiyatli jihatlarga e'tibor qaratilib, loyiha fraksiya a'zolari tomonidan qo'llab-quvvatlandi.

Shuningdek, Madaniy meros agentligi vakolatlarini huquqiy jihatdan mustahkamlashga qaratilgan qonun loyihasi ham atroflicha ko'rib chiqildi.

Mazkur qonun loyihasi bilan qator qonun hujjatlariga tegishli o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish orqali respublika ijro etuvchi hokimiyat organlarining madaniy meros sohasidagi vakolatlarini aniq belgilash, ularni tizimlashtirish va



qonunchilikni o'zaro muvofiqlashtirish nazarda tutilmoqda.

Ta'kidlab o'tilganidek, qonun loyihasi madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan oqilona foydalanish sohasida davlat boshqaruvi tizimini institutsional jihatdan mustahkamlash, qonunchilikdagi ziddiyat va huquqiy bo'shliqlarni bartaraf etish hamda sohada vakolatli organlar faoliyati samaradorligini oshirishga qaratilgan.

Muhokamadan so'ng qonun loyihasi konseptual qo'llab-quvvatlandi.

"Adolat" sotsial-demokratik partiyasi fraksiyasi yig'ilishida Prezidentimizning Turkiya Respublikasiga rasmiy tashrifining ahamiyati haqida so'z yuritildi.

Deputatlar davlatimiz rahbarining ushbu tashrifi ikki qardosh xalq o'rtasidagi do'stlik, o'zaro ishonch va hamkorlik munosabatlari yangi, yanada mazmunli bosqichga ko'targan muhim voqelik bo'lganligini qayd etdi.

Ikki davlat o'rtasidagi keng qamrovli strategik sheriklik kelgusida ham tinchlik, ijtimoiy adolat va umumiy taraqqiyotga xizmat qiladigan namunaviy hamkorlik modeli sifatida rivojlanib boraverishi alohida urg'ulandi.

Yig'ilishda "O'zbekiston

qo'shimchalar kiritish taklif qilinmoqda.

Muhokama jarayonida **deputat Zokirjon Zohidov** huquqlarni e'tirof etish jarayonlarida ochiqlik, shaffoflik va adolat tamoyillariga qat'iy rioya qilish, fuqarolar uchun ortiqcha byurokratik to'siqlarni bartaraf etish muhimligini ta'kidladi. Uning fikricha, uy-joyga bo'lgan huquq imtiyoz emas, balki Konstitutsiya bilan kafolatlangan asosiy huquq hisoblanadi.

Deputat Iba Narizova esa amaldagi tartib-taomillarning murakkabligi, hujjatlarni ko'rib chiqish muddatlarining cho'zilishi hamda idoralar o'rtasidagi muvofiqlashuv yetishmasligi fuqarolarning qonuniy huquqlarini to'liq ro'yobga chiqarishga to'sinlik qilayotganini qayd etdi.

Qonun tashabbuskorlari loyihada nazarda tutilayotgan normalar jismoniy va yuridik shaxslarning ko'chmas mulk obyektlariga bo'lgan huquqlarini rasmiylashtirishga to'sinlik qilayotgan omillarni bartaraf etishga qaratilganini urg'uladi.

Yig'ilishda aholiga tibbiy yordamning kafolatlangan hajmiga kiradigan xizmatlarni ko'rsatish, shuningdek, tibbiyot va farmatsevtika xodimlarining kasbiy faoliyatini tartibga solishga qaratilgan o'zgartirishlar ularning huquqiy himoyasi, mehnat sharoitlari va munosib ish haqi masalalari bilan uzviy bog'liq holda hal etilishi lozimligini bildirdi.

Yig'ilishda ko'rib chiqilgan qonun loyihalarini yanada takomillashtirishga qaratilgan qator taklif va mulohazalar aytili hamda ular qo'llab-quvvatlandi.

O'zbekiston Ekologik partiyasi fraksiyasi yig'ilishida ov qilish va ovchilik xo'jaligi to'g'risidagi qonunlarga tegishli o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish taklif etilmoqda. Shu bilan birga, ov qilish jarayonlarini tizimlashtirish, ovchilik xo'jaliklari faoliyatini yanada takomillashtirish hamda sohaga oid munosabatlarni huquqiy jihatdan tartibga solishga qaratilgan normalar belgilanmoqda.

Fraksiya rahbari Abdushukur Hamzayev hayvonot dunyosini muhofaza qilish masalasiga alohida to'xtalib, O'zbekiston Respublikasining Qizil kitobiga kiritilgan kamyob va yo'qolib borayotgan hayvonlarni tutishga ilmiy maqsadlardan tashqari barcha hollarda moratoriy joriy etish zarurligini ta'kidladi. Ushbu taklif partiyarining saylovoldi dasturida ham o'z aksini topgani aytiladi.

Shuningdek, fraksiya a'zolari tomonidan ham qonun loyihasidagi normalarni takomillashtirish bo'yicha qator taklif va tavsiyalar berildi.

Qizg'in muhokamadan so'ng qonun loyihasi deputatlar tomonidan qo'llab-quvvatlandi.

"Xalq so'zi".

YANGI O‘ZBEKISTON VA TINCHLIK DIPLOMATIYASI



Shuningdek, “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi va unga bog‘liq siyosiy konsepsiyalar doirasida rasmiy hujjatlarda shaxsning sha’ni va qadr-qimmatini davlat siyosatining barcha ustuvor yo‘nalishlarini belgilovchi asosiy tamoyil sifatida qayd etilgan.

Ikki tomonlama hamkorlik darajasi o‘laroq Finlyandiya O‘zbekistonga amalga oshirilgan yuqori darajadagi tashriflar natijalariga tayangan holda 2026-yilda hamkorlikni yanada rivojlantirish uchun qulay imkoniyatlarga ega. Ushbu aloqalar Markaziy Osiyoning boshqa davlatlari bilan hamkorlik uchun ham samarali namuna bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Mintaqaviy integratsiya va global e’tibor uchun raqobat

Global miqyosda qaror qabul qiluvchilarning e’tiborini doimiy jalb etish uchun Markaziy Osiyodagi hamkorlik aniq, dalillarga asoslangan va sezilarli natijalarni namoyon qilishi lozim. Ayniqsa, Markaziy Osiyo mamlakatlari o‘rtasidagi mintaqaviy hamkorlikning kuchayishi,

rejalashtirishni yanada rivojlantirish, siyosatni muvofiqlashtirish, tartibga solish jarayonlarida shaffoflikni oshirish hamda gender tenglikni ta’minlashga qaratilgan islohotlar kiradi. Ushbu chora-tadbirlarning barchasi “O‘zbekiston – 2030” strategiyasida belgilangan maqsadlarni ro‘yobga chiqarishga xizmat qiladi.

Halollik va poklik tamoyillarini mustahkamlash, dalillarga asoslangan siyosat yuritishni targ‘ib etish, fuqarolarning ishtirokini kengaytirish hamda hisobdorlikni ta’minlash yanada inklyuziv va farovon jamiyat barpo etishning muhim shartlaridir. Bunday islohotlar iqtisodiy va ijtimoiy siyosatni samarali amalga oshirishning poydevori bo‘lib, O‘zbekistonning uzoq muddatli rivojlanish strategiyasida markaziy o‘rin tutadi.

Inson kapitali va ko‘p qirrali hamkorlik

O‘zbekistonning yosh va jadal sur’atlarda o‘sib borayotgan ishchi kuchi

mavjud. Binobarin, O‘zbekiston biznes xizmatlarini ko‘rsatishda “yagona darcha” modeliga o‘tish yo‘lida ilgari bormoqda, bu esa tartib-taomillarni soddalashtirish va tadbirkorlar uchun imkoniyatlarni kengaytirishga xizmat qiladi.

Iqtisodiy diversifikatsiya strategik ustuvor vazifa bo‘lib, qishloq xo‘jaligi, tabiiy gaz va xomashyo sohalari bilan bir qatorda axborot texnologiyalari, sun’iy intellekt kabi yuqori qo‘shimcha qiymatga ega tarmoqlarni rivojlantirish uzoq muddatli iqtisodiy barqarorlik uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Finlyandiya kompaniyalari bunday yondashuvga asoslangan loyihalarni taklif qilishi mumkin.

2025-yil – Finlyandiyaning Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkilotiga raisligi davrida Tashqi ishlar vaziri Elina Valtonen xonim Toshkentga tashrif buyurib, mamlakatning oliy rahbariyati, shuningdek, Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universitetida tahsil olayotgan talabalar hamda bo‘ljak tashqi siyosat mutaxassislari bilan uchrashdi.

Finlyandiyaning Markaziy Osiyo bo‘yicha strategiyasi Hukumat dasturiga muvofiq ravishda amalga oshirilib, mintaqaning tobora ortib borayotgan strategik va savdo-iqtisodiy ahamiyati e’tirof etilmoqda. Bu doirada ekologik barqaror konchilik texnologiyalari hamda Yevropa Ittifoqining “Global Gateway” bog‘lanish tashabbuslari orqali raqamlashtirish masalalariga alohida urg‘u berilmoqda.

Yevropa doirasida olib borilayotgan monitoring va hisobotlarda Markaziy Osiyoning Yevropa Ittifoqi uchun mintaqaviy ahamiyati, yirik davlatlar bilan munosabatlar, Turkiyaning roli, mintaqaviy hamkorlik, qo‘shnichilik siyosati, bozor rivoji, Yevroittifoq va O‘zbekiston o‘rtasidagi Kengaytirilgan sheriklik va hamkorlik to‘g‘risidagi bitim holati hamda yangi xalqaro tashabbuslar tobora ko‘proq markaziy o‘ringa chiqmoqda.

Finlyandiyaalik manfaatdor tomonlar Markaziy Osiyoga oid siyosiy maslahatlashuvlar, seminarlar va tarmoq uchrashuvlarida faol ishtirok etib kelmogda. Aloqalar intensivlashuvi hukumatlar darajasidagi mavjud iqtisodiy hamkorlik mexanizmlarini to‘ldirmoqda. Taraqqiyot sohasidagi sheriklik aniq yo‘naltirilgan, idoralararo loyihalar orqali davom ettirilmoqda. Bu jarayonda cheklangan inson resurslari va imkoniyatlar qayerda eng katta samara berishini puxta baholashga alohida e’tibor qaratilmoqda. Yevropa Ittifoqining Markaziy Osiyo bilan bog‘lanish tashabbuslari, jumladan, “TAIEX” dasturi, suv resurslarini boshqarish va raqamlashtirish sohalarida qo‘shimcha imkoniyatlar yaratmoqda.

Ommaviy diplomatiya va mamlakat imijini shakllantirishga qaratilgan faoliyat mintaqaviy hamkorlik, ta’lim, iqlim va atrof-muhit masalalari, qonun ustuvorligi hamda tenglik mavzulariga yo‘naltirilayapti. Xelsinkida bo‘lib o‘tgan Markaziy Osiyo faxriy konsullari konferensiyasi axborot almashinuvini mustahkamladi. Shuningdek, qo‘shma madaniy tashabbuslar, xususan, Karl



Gustaf Emil Mannergeymning Markaziy Osiyo bo‘ylab safarlarini chog‘ida olingan suratlardan iborat ko‘chma fotoko‘rgazma hamkorlikni yanada faollashtirdi.

Shuni alohida ta’kidlash lozimki, 2025-yil 4-aprel kuni Samarqand shahrida bo‘lib o‘tgan “Markaziy Osiyo – Yevropa Ittifoqi” sammitida yetakchilar 2019-yilgi YEI – Markaziy Osiyo strategiyasi va uning 2023-yildagi amalga oshirish rejasini asosida hamkorlikni strategik sheriklik darajasigacha chuqurlashtirishga sodiqliklarini yana bir bor tasdiqladi. Yevropa Ittifoqi muhim xomashyo resurslari, suv, energetika, iqlim, transport hamda raqamli bog‘lanish yo‘nalishlarini qamrab olgan 12 mlrd. yevrolik “Global Gateway” investitsiya paketini e’lon qildi. Endilikda Markaziy Osiyo davlatlari mahalliy qiymat zanjirlarini va iqlimga moslashuvchanlikni qo‘llab-quvvatlovchi aniq investitsiyalarni kutmoqda. Bular qatoriga qat’iy tanlov mezonlariga rioya etilgan holda amalga oshiriladigan Orol dengizi “yashil belbog‘”i kabi tashabbuslar ham kiradi.

qaratilgan izchil siyosiy qarashni ilgari surib kelmogda. Davlat rahbarining Birlashgan Millatlar Tashkiloti va boshqa yirik xalqaro minbarlardagi nutqlari global xavfsizlikka nisbatan diplomatik va insonparvar yondashuvni aks ettirib, Markaziy Osiyo davlatlari o‘rtasida va undan tashqarida hamkorlikning mustahkamlanishiga xizmat qilmoqda.

2019-yil iyun oyida Osiyoda o‘zaro hamkorlik va ishonch choralarini bo‘yicha kengashning (CICA) Beshinchi sammitida Prezident Shavkat Mirziyoyev ta’lim, yoshlar ishtiroki, ekologik muammolar va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga qaratilgan tashabbuslarni ilgari surar ekan, sifatlari ta’limdan foydalanish imkoniyati va radikallashtirishning oldini olish barqarorlik hamda farovonlikning asosiy shartlari ekanini alohida ta’kidladi. Shuningdek, O‘zbekiston tinchlikka erishishga, jumladan, Afg‘onistondagi vaziyatni barqarorlashtirishga qaratilgan muzokaralarni hamda Yaqin Sharqda muloqot va iqtisodiy integratsiya orqali tinchlikni ta’minlashga yo‘naltirilgan

oshirish, dinlararo muloqotni rivojlantirish va gumanitar hamkorlikka doir takliflar ushbu insonparvar yondashuvni yanada mustahkamlaydi.

Mintaqa yetakchilari va xalqaro kuzatuvchilar O‘zbekistonning vositachilik va muloqotni rivojlantirishdagi konstruktiv rolini tobora ko‘proq e’tirof etmoqda. Ilmiy tahlillarda Prezident Shavkat Mirziyoyevning tinchlik siyosati mintaqaviy va global barqarorlikka hissa qo‘shuvchi inklyuziv model sifatida baholanmoqda.

Masalan, Farg‘ona vodiysida erishilgan muvaffaqiyatli yarashtrish tajribasi O‘zbekiston yetakchisining mojarolarni muloqot, ishonchni mustahkamlash va amaliy hamkorlik orqali hal etishga qaratilgan mintaqaviy strategiyasini yaqqol namoyon qildi. Qarama-qarshilik o‘rniga kelishuvga asoslangan yondashuvni ustuvor qo‘yish orqali O‘zbekiston Markaziy Osiyoning eng murakkab va sezgir hududlaridan birida keskinlikni yumshatishga sezilarli hissa qo‘shdi.

Umuman olganda, ishonchga asoslangan diplomatiyani, mintaqaviy hamkorlikni va mojarolarni tinch yo‘l bilan hal etishni targ‘ib qilish borasidagi sa‘y-harakatlar Markaziy Osiyoni tinchlik, hamkorlik va yaxshi qo‘shnichilik mintaqasiga aylantirish jarayonini jadallashtirdi.

Bugungi murakkab xalqaro muhitda tinchlik va hamkorlikka asoslangan siyosat eng ishonchli yo‘l bo‘lib qolmoqda. O‘zbekistonning ochiq tashqi siyosati, Finlyandiya va Yevropa Ittifoqi bilan strategik sheriklik hamda mintaqaviy birdamlikka sodiqligi barqaror rivojlanish uchun mustahkam poydevor yaratmoqda.

Tinchlik mavhum orzu emas – u izchil siyosiy iroda, ishonchga tayangan diplomatiya va samimiy hamkorlik natijasi. Farovon va xavfsiz kelajak aynan shu mushtarak qadriyatlarga tayanadi.

Ilkka RAYSANEN,
Finlyandiyaning O‘zbekiston,
Tojikiston hamda Turkmanistondagi sobiq Favqulodda va muxtor elchisi,
Yevropa Qo‘shnichilik kengashining tashqi maslahatchisi, Xalqaro Nordik universiteti faxriy professori.

“ Prezident Shavkat Mirziyoyev tinchlik shunchaki urushning yo‘qligi emas, balki davlatlar va xalqlar o‘rtasidagi o‘zaro ishonchga tayangan hamkorlik ekanini doim ta’kidlab keladi. Samarqand tashabbusi, Xalqaro Tinchlik va ishonch yili qo‘llab-quvvatlanishi hamda pragmatik diplomatiya bo‘yicha ilgari surilgan takliflar aynan shu yondashuvni yaqqol aks ettiradi. ”

Xalqaro moliya institutlari va kuchli institutsional tarmoqlar ko‘magida siyosiy jadallikni aniq va amaliy hamkorlikka aylantirish hal qiluvchi ahamiyat kasb etayotgani quvonarlidir.

Mushtarak qadriyatlar va barqarorlik

Bugun xalqaro munosabatlar beqarorlik, mintaqaviy mojarolar va o‘zaro ishonchsizlikning kuchayishi bilan ajralib turganini ko‘rish mumkin. Shunday sharoitda O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev mintaqaviy va global miqyosda tinchlikni mustahkamlashga

sa‘y-harakatlarni izchil qo‘llab-quvvatlab kelmogda.

Prezident Shavkat Mirziyoyev tinchlik shunchaki urushning yo‘qligi emas, balki davlatlar va xalqlar o‘rtasidagi o‘zaro ishonchga tayangan hamkorlik ekanini doim ta’kidlab keladi. Samarqand tashabbusi, Xalqaro Tinchlik va ishonch yili qo‘llab-quvvatlanishi hamda pragmatik diplomatiya bo‘yicha ilgari surilgan takliflar aynan shu yondashuvni yaqqol aks ettiradi. Prezident tinchlik siyosatining markaziga inson qadr-qimmatini qo‘yib, tinchlikni adolat va inson huquqlari bilan uzviy bog‘laydi. Yoshlarning faolligini

XAVFSIZ MUHIT – OSOYISHTALIK POYDEVORI



Sayyora ABDIKARIMOVA,
Oliy Majlis Senatining Agrar, suv xo‘jaligi masalalari va ekologiya qo‘mitasi raisi o‘rinbosari:

– Davlatimiz rahbari raisligida o‘tgan videoselektor yig‘ilishida ko‘tarilgan masalalar bugungi kunda davlat va jamiyat xavfsizligi uchun eng dolzarb tahdidlardan ekanini yaqqol ko‘rsatib berdi. Jumladan, Toshkent shahri misolida aholi soni, iqtisodiy faollik va infratuzilmaning jadal o‘shishi bilan birga jinoyatchilikning yangi ko‘rinishlari paydo bo‘layotgani chuqur tahlil qilindi. Bu esa huquq-tartibot organlari, davlat idoralari va jamoatchilikdan muloqo yangi yondashuv, tizimli hamkorlik va profilaktik choralar ko‘rishni talab etadi.

Senat a’zosi sifatida raqamli xavfsizlikni kuchaytirish, “yashirin iqtisodiyot”ni qisqartirish hamda jinoyatchilikning oldini olishga qaratilgan qonunchilikni takomillashtirishni ustuvor vazifa, deb bilaman. Shu bilan birga, ayni yo‘nalishlarda parlament nazorati yanada kuchaytirilib, hududlarda aniq natija beruvchi choralar ta’minlanishi shart.

Jamiyat xavfsizligi barchamizning umumiy mas’uliyatimiz. Birgalikda, qat’iyat va ochiqlik bilan harakat qilsakka barqaror taraqqiyot va tinch hayotni ta’minlay olamiz.

Jahongir SA’DULLAYEV,
Ichki ishlar vazirligi Tezkor-qidiruv departamentining Kiberxavfsizlik markazi rahbari o‘rinbosari:

– Prezidentimiz tomonidan xavfsizlik masalasiga qaratilayotgan doimiy e’tibor va qat’iy siyosiy irodani chuqur his etgan holda aytishni istardimki, bugun jahon miqyosida keskin o‘zgarishlar kechayotgan sharoitda yurtimizda tinchlik va xotirjamlikni saqlab tutish oson vazifa emas. Lekin aynan mamlakatimiz yetakchisining uzoqni ko‘ra bilishga asoslangan yondashuvi, tinimsiz sa‘y-harakatlari yurtimizda barqaror va xavfsiz muhitni ta’minlash uchun mustahkam zamin yaratmoqda.

Shu ma’noda, 27-yanvar kuni Prezidentimiz raisligida Toshkent shahrida xavfsiz muhitni shakllantirish hamda jamoat xavfsizligini samarali ta’minlash bo‘yicha namunaviy amaliyotni yaratish chora-tadbirlari yuzasidan o‘tkazilgan yig‘ilishda belgilangan vazifa hamda topshiriqlar barcha ichki ishlar organlari faoliyati uchun dasturlamal, deb bilaman.

Bugun ichki ishlar organlari tizimi oldida jinoyatchilikka qarshi kurashish, jamoat xavfsizligini ta’minlash, ayniqsa, raqamlashtirish jarayonlari jadal kechayotgan sharoitda kiberjinoyatlarning oldini olish ustuvor vazifa etib belgilangan. Achinarlisi, 2021 – 2025-yillar oralig‘ida kiberjinoyatlar soni 11 baravarga oshib, 4 865 tadan 62 440 taga yetdi. Bu jinoyatlar oqibatida fuqarolarga 3 trln. 730 mlrd.

so‘m zarar yetkazilgan.

Aynan shu tahdidlarni hisobga olgan holda, davlatimiz rahbarining tegishli qarori qabul qilindi, kiberjinoyatlarga qarshi kurashish bo‘yicha hududlarda alohida boshqarmalar tashkil etildi, xodimlar soni oshirildi. Tan olish kerak, ilgari bu sohada tajriba yetarli emas edi. Shuning uchun biz xorijiy hamkorlar bilan tajriba almashishni yo‘lga qo‘ydik, yetakchi mutaxassislarni chorladik, kadrlar tayyorlash tizimini tubdan yangiladik. Vazirlik Akademiyasida raqamli texnologiyalar sohasida jinoyatlarga qarshi kurashish yo‘nalishida kadrlar tayyorlanmoqda, “Bir million dasturchi” loyihasi bitiruvchilari sohaga jalb qilinmoqda.

Rixsivoy MAHAMATOV,
Mirobod tumanidagi “Bilimdon” mahalla fuqarolar yig‘ini raisi:

– Mahalla raisi sifatida Prezidentimizning selektor yig‘ilishida bergan topshiriqlarini chuqur mas’uliyat bilan qabul qildim. Ayniqsa, bugungi kunda radikal va ekstremistik g‘oyalar axborot texnologiyalari orqali yoshlar ongini zaharlashga urinayotgani, bu kabi xatarlarga qarshi faqat jazo va taqib bilan kurashib bo‘lmagligi haqida mulohazalar men kabi har bir mahalla raisi uchun aniq yo‘nalishni belgilab berdi.

Davlatimiz rahbari tomonidan “Qaytaruv guruhlari” faoliyatini muntazam va tizimli yo‘lga qo‘yish, ushbu yo‘nalishga yetuk ilm egalari, tajribali mutaxassislarni yo‘naltirish bo‘yicha berilgan ko‘rsatmalar mas’uliyatimizni yanada oshirdi.

Bunday yondashuv adashgan yoshni jazolashga emas, balki uni tushunish, to‘g‘ri yo‘lga qaytarishga qaratilgan bilan alohida ahamiyatga ega.

Bizning mahallada bugungi kunda 3300 nafar aholi istiqomat qiladi. Ular 565 ta xonadonda joylashgan 648 oiladan iborat. Bu esa har bir xonadon bilan yakka tartibda ishlashni, aholi bilan yuzma-yuz muloqotni taqozo etadi. Shu kundan e’tiboran mahallamizda profilaktika inspektorlari ishtirokida xonadonbay yurib, yoshlar hamda aholi bilan muntazam suhbatlar o‘tkazib kelaymiz.

Shuningdek, mahallamizdagi maktablarda o‘quvchilar bilan ochiq muloqotlar tashkil etyapmiz. Ularga “Ustoz – shogird” an’analari asosida foydali kasb-hunar egallash, 2-3 ta xorijiy tilni o‘rganish, IT sohasida bilim va ko‘nikmalarini rivojlantirish bo‘yicha tushuntirish ishlari olib borilmoqda. Bu jarayonlarda malakali mutaxassisslar ishtiroki yoshlarimiz kelajagi uchun mustahkam poydevor bo‘lib xizmat qilmoqda.

Jaasur JO‘RAYEV,
Yashnobod tumanini Ichki ishlar organlari faoliyatini muvofiqlashtirish boshqarmasi boshlig‘ining huquqbuzarliklar profilaktikasi bo‘yicha o‘rinbosari:

– Ushbu yig‘ilish jamoat xavfsizligini ta’minlash, xavfsiz muhitni shakllantirish borasida yangi, amaliy va xalqqa yaqin yondashuvlarni belgilab berdi, desak, mubolag‘a emas. Unda Chilonzor tumani misolida joriy etilajak yangi tizimni, xususan, endilikda ko‘chadagi har qanday ichki ishlar xodimiga murojaat “102” raqamiga qo‘ng‘iroq bilan teng bo‘lishni sohaning barcha xodimlari qat’iy talab sifatida qabul qilidik. Bu faqat qoida emas, balki xalq ishonchini mustahkamlovchi,

fuqarolarga qo‘shimcha qulaylik yaratadigan muhim mexanizmdir. Shu bois ushbu topshiriqlarni so‘zsiz bajarish har bir xodimning shaxsiy mas’uliyati ekanini alohida ta’kidladi va shu kunning o‘zidayoq amaliy ishlarga kirishildi.

Ayni paytda tumanimizdagi 55 ta mahallaning barchasida profilaktika inspektorlarining xizmat xonalari tezkor aloqa tugmalari bilan jihozlanmoqda. Endi profilaktika inspektori qayerda bo‘lishidan qat’i nazar, fuqarolar uning qo‘l telefoni yoki plansheti orqali tunu kun bog‘lana oladi. Bu amaliyot aholi bilan ishlashda ochiqlik, tezkorlik va ishonchni yanada mustahkamlayotgani amalda sezilmogda. Jinoyatlarning oldini olish, huquqbuzarlikka moyil shaxslar bilan manzilli ishlashni tizimli yo‘lga qo‘yib bormogdamiz. Har bir holat profilaktika inspektorlari tomonidan chuqur o‘rganilib, tegishli xulosalar asosida alohida nazoratga olinmoqda. Shuningdek, “Mening inspektorim” mobil ilovasi orqali fuqarolarning murojaat qilish imkoniyatlari kengaymoqda, aholini ushbu tizimga ulash bo‘yicha targ‘ibot ishlari faol olib borilmoqda.

Hali oldimizda turgan vazifalar ko‘p. Ularni bajarish uchun bor imkoniyatimizni ishga solamiz. Xalqqa yanada yaqin bo‘lib, har bir murojaatni e’tiborsiz qoldirmaslikka hamda jinoyatlarning oldini olish orqali mahallalarda tinchlik va xotirjamlikni ta’minlashga intilamiz.

Ulug‘bek RO‘ZIMATOV
(“Xalq so‘zi”) yozib oldi.

Ko‘chmas mulkdagi yashash joyi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tgan shaxslar to‘g‘risidagi ma’lumotni tahrirlash tartibi belgilandi.

YANGILIKLAR xabarlar
TAFSILOTLARYOSH
SHAXMATCHILARIMIZNING
YANA BIR OLAMSHUMUL
YUTUG'I

Niderlandiyaning Veyk-an-Zee shahrida o'tkazilgan "Tata Steel Chess – 2026" turniri yakunlandi. E'tiborlisi, ushbu musobaqa mamlakatimiz sporti tarixiga zarhal harflar bilan muhrlandi.



Gap shundaki, o'n yetti kunlik shiddatli bahslar natijasida hamyurtlarimiz – Nodirbek Abdusattorov va Javohir Sindorov butun dunyoga o'zbek shaxmat maktabining intellektual salohiyatini yana bir bor namoyish etdi.

"Masters" guruhida 9 ball jamg'argan Nodirbek Abdusattorov 88-bor tashkil etilgan nufuzli turnirning g'olibi bo'ldi. Jahon kubogi g'olibi Javohir Sindorov esa 8,5 ball to'plab, 2-o'rinni qo'lga kiritdi. Aytish lozim, joriy yilgi Da'vogarlar turniriga hozirlik ko'rayotgan Javohir "Tata Steel Chess – 2026" musobaqalari davomida biron-ta ham o'yinda mag'lubiyatga uchramagan "Masters" guruhidagi yagona shaxmatchiga aylandi.

– Bolaligimda aynan shu turnirda chempion bo'lishni orzu qilardim. Endi esa u ro'yobga chiqdi, – dedi Nodirbek Abdusattorov taqdirlash marosimidan keyin jurnalistlarga bergan intervyusida. – Bu juda uzoq yo'l bo'ldi. Yillar davomida mazkur musobaqada qatnashib, g'alabaga juda yaqin kelardim, ammo har safar biroz omadim yetmay qolardi. Nihoyat, joriy yilgi turnirda juda chiroyli uslubda g'alaba qozondim. Bu faoliyatimdagi eng muhim lahzalardan biri bo'ldi. Ushbu yilgi imkoniyatni boy berishim mumkin emas, deb o'zinga so'z bergandim. Shukrki, o'z maqsadimga erishdim. Meni qo'llab-quvvatlab turgan barchaga rahmat!

Aytish joizki, turnir yakunosiga ko'ra onlayn reyting hisobida Nodirbek Abdusattorov o'z ko'rsatkichini +19,5 ballga oshirib, 2770 reyting bilan dunyo reytingida kuchli beshlikka ko'tarilishga erishgani, Javohir Sindorov esa +19,4 qo'shimcha ball evaziga 2745 reyting bilan 11-o'ringa chiqqani 2026-yil yurtimiz shaxmatchilari uchun omadli boshlanganidan dalolatdir.

"Xalq so'zi".

INNOVATSION
MARKAZDA KELAJAK
KASBLARI

Furqat tumanida "Innovation hub" markazi o'z faoliyatini boshladi. Axborot texnologiyalari sohasini rivojlantirish, yoshlarni zamonaviy kasblarga yo'naltirish maqsadida tashkil etilgan markazda matematika, rus va ingliz tili, IT chuqurlashtirilgan holda o'qitiladi.



Koreys va turk tillari bo'yicha ham mashg'ulotlar yo'lga qo'yilib, bu borada nazariya va amaliyotni o'zaro uyg'unlashtirib borish ko'zda tutilgan. Shu maqsadda xorijdan ikki nafar xalqaro toifadagi mutaxassis jalb qilindi.

– O'quv jarayonlari barcha zamonaviy yo'nalishlar va kelajak kasblarini qamrab olgan, – deydi loyiha tashabbuskori Burhonjon Rahmatullayev. – Xususan, yigit-qizlar raqamli marketing, dasturlash, SMM, kompyuter dizayni, sun'iy intellekt va mobil ilovalar yaratish yo'nalishlarida mukammal bilimga ega bo'ladi.

"Innovation hub"da yangi avlodning jahon mehnat bozorida raqobatdosh mutaxassis bo'lishiga ko'maklashish ustuvor vazifa sifatida belgilangan bo'lib, ularga masofaviy ishlash, onlayn xizmatlar ko'rsatish, startap loyihalar va o'z biznes g'oyalari amalga oshirish ko'nikmasi o'rgatiladi.

Botir MADIYOROV
("Xalq so'zi").

BARQAROR QUVVAT TA'MINOTI

Mamlakatimizda elektr energiyasi ishlab chiqarish hajmi
85 MLRD. KILOVATT-SOAT ga yetkazildi

Taqvimdagi eng muhim
sana

Barqaror elektr ta'minotisiz sanoat, tadbirkorlik kabi muhim sohalarni rivojlantirib bo'lmaydi. Iqtisodiyot texnologik va innovatsion o'sish modeliga o'tkazilayotgan hozirgi sharoitda elektr energiyasi ishlab chiqarish hajmini keskin oshirish talab etiladi. Negaki, joriy yilda start beriladigan 52 mlrd. dollarlik 782 ta yangi sanoat va infratuzilma loyihasi hamda umumiy qiymati 14 mlrd. dollarlik 228 ta yangi yirik quvvatning o'z vaqtida ishga tushirilishi energetika sohasi ravnaqi bilan chambarchas bog'liq.

– Jadal sur'atlarda o'sib borayotgan iqtisodiyotimiz hamda aholining talab-ehtiyojidan kelib chiqqan holda energetika sohasida keng islohotlar amalga oshirilib, tizim faoliyatida tamomila yangi bosqichga o'tilyapti, – deydi Energetika vazirligi kotibiyati boshlig'i Bekzod Ismoilov. – Bu yangilanish ikkita muhim maqsadga erishish imkonini beradi. Avvalo, barcha tarmoq va hududlar uchun ishonchli va uzluksiz energiya ta'minoti yo'lga qo'yiladi. Qolaversa, ekologik toza va muqobil qayta tiklanuvchi manbalardan foydalanishni chuqurlashtirish evaziga u ta'minotdagi asosiy kuchga aylanadi. Prezident Shavkat Mirziyoyev boshchiligidagi 2025-yil 5-dekabr kuni Xalqaro kongress markazida ishga tushirilgan va qurilish boshlangan loyihalar bu borada yangi imkoniyatlarni taqdim etib, energetika tarmog'ini rivojida yangi sahifa ochib beradi.

Darhaqiqat, o'tgan yilning 5-dekabr kuni milliy energetika tizimining taraqqiyot taqvimiga eng muhim sana sifatida muhrlandi. Sababi aynan o'sha kuni mamlakatning barqaror rivojida muhim ahamiyatga ega bo'lgan yirik loyihalar ro'yobga chiqarildi. Aniqrog'i, umumiy hajmi qariyb 11 mlrd. dollarlik 42 ta yangi quvvat va infratuzilma obyekti ishga tushirilgan bo'lsa, yana 21 ta yangi loyiha qurilishiga rasman kirishildi. Shu jumladan, respublikamizning turli hududlarida 3,5 ming megavattli 16 ta quyosh, shamol, issiqlik va gidroelektr stansiyalar foydalanishga topshirildi.

Soha mutaxassislarning aytishlaricha, ular to'liq quvvatda ishlaganda yiliga 15 mlrd. kilovatt-soat elektr generatsiyasi hosil bo'ladi. Pirovardida "yashil" energiya ishlab chiqarish hajmi joriy yilning o'zida 23 mlrd. kilovatt-soatga yetkazilishi kutilyapti. Bu O'zbekiston aholisining yillik elektr energiyasi iste'molini to'liq qoplay olishi bilan alohida

ahamiyatga ega. Eng muhimi, "toza" energiya hisobiga tabiiy gaz sarfi salkam 7 mlrd. kubometr iqtisod qilinib, atmosferaga 11 mln. tonna zararli moddalar chiqishining oldi olinadi.

Shu bilan birga, o'sha kuni foydalanishga topshirilgan 11 ta yirik podstansiya, 1 245 megavattli 10 ta energiya saqlash tizimi va 420 kilometr yuqori kuchlanishli tarmoqlar tizimining barqaror ishlashiga xizmat qiladi. Aytaylik, energiya saqlash tizimlari iste'mol ortib ketgan tig'iz vaqtlarda qo'shimcha ravishda 1,5 mlrd. kilovatt-soat elektr energiyasini tarmoqqa uzatish imkonini beradi.

Bunyodkor kuch

Yodingizda bo'lsa kerak, bundan atigi o'n yil burun elektr energiyasi



eng og'riqli muammoga aylangan edi. Ta'minotdagi beqarorlik, paydar-pay uzilishlar aholining haqli e'tirozlarini yuzaga keltirgan bo'lsa, biznes rivojida katta to'siqqa aylangandi. Ana shunday og'ir bir paytda davlat rahbari eng muhim hayotiy ehtiyojlardan biri bo'lgan elektr energiyasi bilan aholini uzluksiz ta'minlashga jiddiy e'tibor qaratdi. Natijada qaddi bukilib qolgan elektr energiyasi bilan aholini uzluksiz ta'minlashga jiddiy e'tibor qaratdi. Natijada qaddi bukilib qolgan elektr energiyasi bilan aholini uzluksiz ta'minlashga jiddiy e'tibor qaratdi. Natijada qaddi bukilib qolgan elektr energiyasi bilan aholini uzluksiz ta'minlashga jiddiy e'tibor qaratdi.

– Energetika bugun iqtisodiyotning chet el investitsiyalari eng ko'p jalb etilayotgan sohasiga aylandi, – deydi Energetika vazirligining Xalqaro hamkorlik, reytinglar va grantlarni jalb qilish bo'limi boshlig'i Shohruxjon Ishmatov. – Tizimga Jahon banki, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki, Osiyo taraqqiyot banki, Osiyo infratuzilmaviy investitsiyalar banki, Islom taraqqiyot banki singari moliya institutlari sarmoyalari

yo'naltirilyapti, ayni chog'da sohada dunyoning yetakchi kompaniyalari bilan hamkorlik aloqalari o'rnatilib, to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar ham kiritilyapti. Bugungi kunda Saudiya Arabistonining "ACWA Power", Turkiyaning "AKSA" va "Cengiz Enerji", Birlashgan Arab Amirliklarining "Masdar", Xitoyning "China Energy", "Datang", "Sinoma", "Poly", "CNTIC" va "Eagle Ray", Fransiyaning "EDF", "Voitalia" va "Total Energies", Germaniyaning "Siemens Energy" hamda Qatarning "Nebras" kompaniyalari ishtirokida yirik loyihalar amalga oshirilayotgani so'zimiz tasdiqidir. Buning hisobiga so'nggi yillarda 35 mlrd. dollar xorijiy investitsiya jalb qilinib, 9 ming megavatt yangi quvvatlar yaratildi.

E'tiborli jihat, salkam 5 ming

megavattli quyosh va shamol, 400 megavattli gidroelektr stansiyalari ishga tushirilgach generatsiya quvvatlarida "yashil" energiya ulushi 30 foizga yetkazildi.

Soha rivojida xususiy sektorning ulushi ortib borayotgani ham quvonarlidir. Tahlillarning ko'rsatishicha, muqobil energiya manbalaridan foydalanishni ko'paytirishda ularning hissasi, ayniqsa, katta bo'lyapti. Buning samarasi o'laroq, qisqa davr ichida xususiy sektor, aholi xonadonlari va ijtimoiy soha obyektlarida 2 ming megavattli kichik quyosh panellari o'rnatilib, o'tgan yili qo'shimcha 2 mlrd. kilovatt-soatga yaqin muqobil energiya ishlab chiqarildi. Bundan tashqari, tadbirkorlar tomonidan 40 megavattli kichik va mikroGESlar qurildi. Natijada suv resurslaridan unumli foydalanib, 120 mln. kilovatt-soat elektr energiyasi ishlab chiqarildi. Bu esa loyiha tashabbuskorlariga qo'shimcha daromad olib keldi. Shu bois ushbu yo'nalishdagi ishlar izchil davom ettirilib, joriy yilda 65 megavattli kichik va mikroGESlar barpo qilinishi ko'zda tutilgan. Buning hisobiga 80 ming

xonadonda elektr ta'minoti tubdan yaxshilanadi.

Energetika tizimidagi o'zgarishlar, o'z navbatida, sanoat tarmoqlari rivojiga ham katta turtki bermoqda. Misol uchun, 2025-yilda yangi qurilayotgan elektr stansiya va tarmoqlari uchun zarur bo'lgan 700 mln. dollarlik qurilish materiallari, metall konstruksiyalar, kabelo'tkazgichlar, elektr qurilmalari mahalliy korxonalar tomonidan yetkazib berildi. Shuningdek, loyihalash-injiniroing va qurilish xizmatlari ham ko'rsatildi. Norin GES kaskadining 38 megavattli ilk gidroelektr stansiyasi to'liq mahalliy mahsulotlardan foydalanilgan holda bunyod etilgani mahalliyashtirish darajasi ortib borayotganini tasdiqlaydi. Binobarin, "Angren Energo" korxonasida ishlab chiqarilayotgan transformatorlar, "Uzgidro-Power"da tayyorlanayotgan gidroagregatlar xalqaro standartlarga to'la javob beradi.

Yopiq turdagi birinchi
nimstansiya

Soha modernizatsiya qilinib, tubdan yangilanayotgani tufayli amaliyotga yangi avlod texnologiyalari ham keng qo'llanila boshlandi. Bu yerda gap murakkab muhandislik konsepsiyasiga ega Yangi Toshkent hududida qurilayotgan innovatsion energetika obyektlari haqida ketmoqda. Ya'ni mamlakatimizda energetika sohasida ilk bor "uch generatsiyali" texnologiya qo'llanilyapti. Yuqori texnologik salohiyat talab etilayotgan mazkur texnologiya markazlashgan sovitsh va isitish tizimi uchun zamonaviy yechim bo'lib, an'anaviy quvvatlarga nisbatan 2 baravargacha kam energiya sarflaydi.

– Oddiy issiqlik markazlari yoki sovitsh tizimlarida ishlab chiqarish jarayonlari alohida-alohida amalga oshirilsa, "uch generatsiyali"

Islohotlarning hozirgi bosqichida elektr energiyasi ishlab chiqarishdagina emas, balki uni yetkazib berishda ham xususiy sheriklik tamoyillarini joriy etishga kirishildi. Ushbu yangilik dastlab Samarqandda sinab ko'rilyotgan bo'lsa, tez orada Jizzax va Sirdaryo viloyatlari, 2027-yildan esa Namangan va Toshkent viloyatlari hududiy elektr tarmoqlari boshqaruvi xususiy investorga berilishi rejalashtirilgan. Mazkur loyiha doirasida tarmoq operatsion boshqaruvga olinadi, investitsiya kiritilib, tarmoqlar modernizatsiya qilinadi. Maqsad – yo'qotishlarni bosqichma-bosqich 2 barobargacha kamaytirib, yuqori tejamkorlikka erishish. Zero, davlatimiz rahbari Murojaatnomada iqtisodiyotning barcha sohasida yuqori samaradorlikka erishish kelgusida islohotlarimizning bosh mezon bo'lishi shart ekanligini belgilab berdi. Uning izchil ijrosi ta'minlanishi tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, elektr energiyasi ishlab chiqarish hajmini muttasil oshirish va energetik barqarorlikka xizmat qiladi.

Said RAHMON
("Xalq so'zi").

ANDIJON ATIRGULLARI JAHON BOZORIDA XARIDORCIR

Baliqchi tumanida qishloq xo'jaligining noan'anaviy, biroq yuqori qo'shimcha qiymatga ega yo'nalishlaridan biri – atirgul yetishtirish izchil rivojlanmoqda. "Chinobod nurli zamin" agrofirmai dalalarida 600 xildan ortiq atirgul ko'chatlari parvarishlanib, ular nafaqat ichki bozor, balki xorijiy davlatlarga ham eksport qilinayotgani bunga yaqqol misol.

Imkoniyat

Agrofirma tomonidan o'tgan yili Rossiya, Qirg'iziston, Tojikiston, Qozog'iston hamda Belarus davlatlariga 1 mln. tup atirgul ko'chatlari yetkazilgan. E'tiborli jihat esa joriy yildan boshlab atirgul mahsulotlari eksportini yanada kengaytirish rejalashtirilgan.

– Hozir bu yo'nalishda tayyorgarlik ishlari olib borilmoqda, – deydi tuman hokimligi mas'ul

xodimi Muzaffarbek Karimov. – Xususan, o'tgan mavsumda yig'ib olingan atirgul yaproqlari belgilangan talablar asosida quritilib, qadoqlash ishlari amalga oshirilyapti. Zero, jahon bozorida mazkur mahsulotning 1 kilogrammi narxi 160 – 250 AQSh dollari atrofida baholanmoqda.

Mutaxassislarning ta'kidlashicha, quritilgan atirgul gulbarglari tarkibida inson salomatligi uchun foydali bo'lgan tabiiy moddalar mavjud. Shu bois tibbiyotda, kosmetologiya sohasida,



oziq-ovqat sanoatida, ayniqsa, qandolatchilik va parfumeriya mahsulotlari ishlab chiqarishda keng qo'llaniladi. Dunyo bo'yicha og'iranda esa atirgul xomashyosini eksport qilayotgan davlatlar soni hali ko'p emas. Shu nuqtayi

nazardan qaralganda, Baliqchi tumanida ushbu yo'nalishda olib borilayotgan ishlar istiqbolli hisoblanadi.

Saminjon HUSANOV
("Xalq so'zi").

Shu yil 1-martdan Alsgeymer tashxisi qo'yilgan shaxslar uchun kunduzgi qatnov asosida qarab turish xizmati yo'lga qo'yiladi.

Xalq so'zi
Narodnoe slovo

MUASSISLAR:
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi
Qonunchilik palatasi Kengashi
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi
Senati Kengashi

Bosh muharrir O'tkir RAHMATOV

2020-yil 25-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi – 229. Buyurtma G-1242. 31 379 nusxada bosildi. Hajmi – 2 taboq. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma'lumotlarni yuklab olish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



TELEFONLAR:
Devonxona 71-259-74-51; kotibiyat 71-259-74-53;
e'lonlar 71-259-74-55.



Tahriyrga kelgan qo'lyozmalar taqzir qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun ubunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida terildi hamda operator A. Ismailov tomonidan sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifati chop etilishiga "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas'ul.
Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ:
100066,
Toshkent shahri,
Islom Karimov ko'chasi, 55-uy.
Navbatchi muharrir S. mamirov.
Musahhah S. Isломov.

"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxona manzili:
Buyuk Turon ko'chasi, 41. O'ZA yakuni – 01.12 Topshirildi – 01.20

1 2 3 4 5 6